

**O‘QUVCHILAR ORASIDA MUSIQIY AKSIALOGIYALARNI
SHAKLLANTIRISH DARAJASI VA QO‘LLANILADIGAN
STRATEGIYALAR: TARBIYADAGI ZAMONAVIY
YONDASHUVLAR**

Kaxxarova Odina Nazirjonovna

Namangan davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: ushbu maqolada globallashuv va texnologik taraqqiyot jarayonida ta’lim tizimining jamiyat hayotidagi o’rni hamda tarbiyaning shaxs kamolotidagi hal qiluvchi ahamiyati ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil etilgan. Ta’lim faqat bilim berish bilan cheklanmasdan, yosh avlodning ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy hamda fuqarolik fazilatlarini shakllantirishga xizmat qilishi ta’kidlanadi. Maqolada tarbiyaning keng va tor ma’nodagi talqinlari, uning mazmuni, vazifalari, asosiy tamoyillari hamda jamiyatning tarixiy-ijtimoiy rivoji bilan bog’liqligi yoritilgan. Shuningdek, uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi doirasida maktab, oila va jamiyat hamkorligining o’rni, ijobiy xulq-atvorni shakllantirish strategiyalari, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning zamonaviy yondashuvlari keng tahlil qilinadi. Maqola zamonaviy ta’lim tizimida tarbiyaning ustuvor yo’nalish sifatidagi ahamiyatini asoslab, barkamol, ma’rifatli, vatanparvar va raqobatbardosh shaxsni tarbiyalash jarayonining pedagogik asoslarini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: tarbiya, ta’lim tizimi, ma’naviy tarbiya, axloqiy tarbiya, shaxs kamoloti, pedagogika, uzluksiz tarbiya, tarbiya tamoyillari, ijtimoiylashtirish, oila-maktab hamkorligi, yoshlar tarbiyasi, milliy qadriyatlar, globallashuv, ijobiy xulq-atvor, ma’naviy-ma’rifiy rivojlanish.

**LEVEL OF FORMATION OF MUSICAL AXIOLOGIES AMONG
STUDENTS AND APPLIED STRATEGIES: MODERN
APPROACHES IN EDUCATION**

Kakhkharova Odina

Master’s Student, Namangan State Pedagogical Institute

Abstract: This article analyzes, from a scientific–pedagogical perspective, the role of the education system in societal development within the context of globalization and technological progress, as well as the decisive importance of upbringing in the formation of an individual's personality. It emphasizes that education is not limited to providing knowledge, but also serves to shape the moral, spiritual, social, and civic qualities of the younger generation. The article highlights the broad and narrow conceptual interpretations of upbringing, its content, functions, and main principles, as

well as its connection to the historical and socio-cultural development of society. In addition, it provides an extensive analysis of the role of cooperation between school, family, and society within the framework of the continuous spiritual education concept, strategies for fostering positive behavior, and modern approaches to educating youth in the spirit of national and universal values. The article substantiates the significance of upbringing as a priority direction of the modern education system and reveals the pedagogical foundations of forming a well-rounded, enlightened, patriotic, and globally competitive individual.

Keywords: upbringing, education system, moral education, spiritual development, personality formation, pedagogy, continuous education, principles of upbringing, socialization, school–family cooperation, youth education, national values, globalization, positive behavior, moral–spiritual development.

Bugungi globallashuv va texnologik taraqqiyot davrida ta’lim tizimi jamiyatning har bir jabhasini rivojlantirishda hal qiluvchi o’rin tutadi. Shuningdek, ta’lim faqat bilim berish bilan cheklanmasdan, yosh avlodni tarbiyalash, ularning axloqiy, ma’naviy va ijtimoiy ko’nikmalarini shakllantirishda ham muhim vazifalarni bajaradi. Tarbiya jarayoni insoniyat qadriyatlarini avloddan-avlodga yetkazish, jamiyatda barqarorlik va uyg’unlikni ta’minlashning asosiy vositasi sifatida ahamiyat kasbetadi.

Zamonaviy maktab, o’quv muassasalari va oila hamkorligi yoshlarning har tomonlama kamol topishi uchun qulay muhit yaratishda hal qiluvchi rol o’ynaydi. Ta’lim tizimida tarbiya masalalarining dolzarbligi bugungi kunda jamiyatning oldida turgan qator muammolar – ma’naviy qadriyatlarning yo’qolishi, axloqiy inqiroz, hamda yoshlar orasida mas’uliyat hissining pasayishi kabi muammolarni hal qilish zarurati bilan ham bog’liqdir. Shunday ekan, zamonaviy ta’lim tizimida tarbiyaga yondashuvni takomillashtirish, uni nafaqat o’quv jarayonining ajralmas qismi, balki davlat va jamiyat siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biri sifatida qarash bugungi kunning dolzarb ehtiyojlaridan biridir.

Tarbiya pedagogikadagi asosiy tushunchalardan biri sanaladi. Jamiyat va pedagogikaning tarixiy rivoji davomida mazkur kategoriya tushuntirishga turlicha yondashuvlar yuzaga keldi. Eng avvalo, keng va tor ma’nodagi tarbiya farqlanadi. Keng ma’noda tarbiya shaxsga jamiyatning ta’sir etishi, ijtimoiy hodisa sifatida qaraladi. Mazkur holatda tarbiya ijtimoiylashtirish bilan uyg’unlashadi¹. Tor ma’nodagi tarbiya deganda, pedagogik jarayon sharoitida ta’lim maqsadini amalga oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchilarning maxsus tashkil etilgan faoliyati tushuniladi. Ushbu holatda pedagoglarning tarbiyaviy faoliyati tarbiyaviy ish deb ataladi. Tarbiya yosh avlodni ma’lum maqsad yo’lida kamol toptirish, uning ongi va

¹ B.X.Xodjayev “Umumiy Pedagogika nazariyasi va amaliyoti” «Sano-standart» nashriyoti Toshkent - 2017

xulq-atvorini shakllantirish va rivojlantirish jarayonidir. Turli ta’riflarda tarbiya mazmuni turlicha talqin qilinsa ham, ulari bitta xususiyat - yosh avlodni kelgusi hayotga tayyorlashga yo’naltirilganligi birlashtirib turadi. Turli jamiyatda, har xil shart-sharoitda tarbiyaning maqsadi, mazmuni va amalga oshirish imkoniyatlari ham turlicha bo’ladi.

Tarbiya jarayoni aniq tarixiy sharoitda aynan o’sha davr uchun dolzarb bo’lgan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Ya’ni tarbiya - shaxs ongini muayyan jamiyatning maqsad va vazifalariga muvofiq ravishda tarkib toptirish va rivojlantirish jarayoni, kishilarni ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotda faol ishtirok etishga qaratilgan barcha ta’sirlar majmuidir. Ta’lim-tarbiya o’zaro uzviy bog’liq bo’lgan bir jarayonning - shaxsning shakllanishi va rivojlanishi jarayonining ikki tomonidir. Tarbiya o’sib kelayotgan avlodni hayotga tayyorlash jarayonini, shu jumladan ta’lim va bilim olishni ham o’z ichiga oladi. Bir butun tarbiya jarayonida uning o’zaro bog’liq bo’lgan ikki qismi ajratiladi: hayotni bilish va unga munosabatni shakllantirish. Hayotni bilish asosan ta’limning vazifasi bo’lsa, tarbiyaning vazifasi unga nisbatan munosabatni shakllantirishdan iborat.

Tarbiya jarayonining tamoyillari (tarbiya tamoyillari) - bu tarbiya jarayonining mazmuni, metodlari va tashkiliy jihatlariga bo’lgan talablar aks etgan asosiy boshlang’ich qoidalardir. Ular tarbiya jarayonining xususiyatlarini o’zida aks ettiradi va pedagogik jarayonning umumiy tamoyillaridan farqli ravishda, bu pedagoglarning tarbiyaviy masalalarni hal qilishida rahbarlik uchun qo’llanidigan umumiy qoidalardir². Hozirgi kunda tarbiya tizimi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- tarbiyaning ijtimoiy yo’nalganligi;
- tarbiyaning hayot va mehnat bilan bog’liqligi;
- tarbiyada bola shaxsining ijobiy jihatlariga tayanish;
- tarbiyada individual yondashuv;
- tarbiyaviy ta’sirlar birligi.

O’zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov bu haqda shunday degan edi: „...ta’lim-tarbiya-ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojlanishini ham belgilaydigan, ya’ni xalq ma’naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Binobarin, ta’lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongni o’zgartirmasdan turib, ma’naviyatni rivojlantirib bo’lmaydi. Shu boisdan bu sohaga yuzaki, rasmiy yondashuvlarga, puxta o’ylanmagan ishlarga mutlaqo yo’l qo’yib bo’lmaydi... Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bihm dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday boiishi farzandlarimizning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog’liq”.

² Савин Н.В. Педагогика. Учеб. пособие для пед. училищ. Изд. 2-е, доп.4- М., «Просвещение»,1978.

Pedagogika ta'lim-tarbiya maqsadini jamiyat talablariga va o'quvchilarning yosh xususiyatlariga qarab mazmunan o'zgarib borishini o'rgatadi, mukammal inson tarbiyasining tarkibiy qismlarini vaular o'rtasidagi aloqa va bog'lanishlarni ochib beradi. Shu asnoda ta'lim va tarbiya sohasidagi tajribalarni umumlashtiradi, tarbiyaning kelgusidagi rivojlanish istiqbollarini, yo'llarini ko'rsatib beradi. Pedagogika maktab, kollej va akademik litseylar va maktabdan tashqari muassasalarixodimlarini ham nazariy, ilg'or tajribalar bilan qurollantiradi.

Tarbiya bola tug'ilganidan boshlab umrining oxirigacha davom etadigan jarayondir. Shu sababli, tarbiya so'zi ko'p vaqtlarda ta'lim, ma'lumot jarayonlariga kiradigan ishlarning mazmunini ham anglatadi. Tarbiya-ta'lim va ma'lumot natijalarini o'zida aks ettiradi. Ta'lim-maxsus tayyorlangan kishilar rahbarligida o'tkaziladigan, o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradigan, bilish qobiliyatlarini o'stiradigan, ularning dunyoqarashini tarkib toptiradigan jarayondir. Tarbiya fani O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida 2020-2021-o'quv yilidan boshlab joriy qilindi.

Ushbu fan uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasining bir qismi sifatida o'quvchilarda „Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari”g'oyasini singdirish, ularni ijtimoiy muvaffaqiyatli hayotga tayyorlash, faol fuqarolik pozitsiyasi, mas'uliyat, majburiyat, huquqiy ong va madaniyat, teran dunyoqarash, sog'lom e'tiqodlilik, ma'rifatparvarlik, bag'ri kenglik kabi fazilatlarni shakllantirishni maqsad qilib qo'ygan. Tarbiya jarayonida qo'llaniladigan asosiy strategiyalardan biri bu ijobiy xulq-atvorni targ'ib qilishdir.

O'qituvchilar bolalarni ijobiy xulq-atvoriga undash uchun turli usullardan foydalanadilar, masalan, aniq taxminlar qo'yish, ijobiy mustahkamlashni ta'minlash va to'g'ri xatti-harakatlarni modellashtirish. Shuningdek, ular bolalar bilan maktabda va undan tashqarida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan impulslarni nazorat qilish va hissiy tartibga solish kabi o'z-o'zini boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ishlaydi. Zamonaviy ta'lim tizimida tarbiya jamiyatning ma'naviy va intellektual taraqqiyotini ta'minlovchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda tarbiya nafaqat bilim berish jarayonining bir qismi, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirish, unga yuksak ma'naviy qadriyatlar va mustahkam hayotiy tamoyillarni singdirish vositasi sifatida qaralmoqda. Tarbiyaning ahamiyati shundaki, u inson ongida o'z-o'zini anglash, jamiyatdagi o'rnini tushunish va mas'uliyatni his qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar, raqamli innovatsiyalar va globallashtirish davrida yosh avlodni milliy an'analar, umuminsoniy qadriyatlar va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yanada dolzarb masalaga aylanmoqda.

Chunki faqatgina ilm-fan yutuqlarini egallagan, biroq ma'naviy asosdan mahrum inson jamiyatga to'liq foyda keltira olmaydi. Zamonaviy ta'lim tizimida tarbiyani

samarali yo‘lga qo‘yish uchun maktab, oila va jamiyatning uzviy hamkorligi talab etiladi. Ayniqsa, pedagoglar va ota-onalar o‘z harakatlarida uyg‘unlikka erishib, yosh avlodga hayotda kerak bo‘ladigan nafaqat bilim, balki axloqiy va ijtimoiy ko‘nikmalarni ham yetkazib bera olishlari muhimdir³. Xulosa qilib aytganda, tarbiya zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas qismi bo‘lib, uning asosiy maqsadi — kelajak avlodni barkamol, vatanparvar va jahon maydonida raqobatbardosh shaxs sifatida shakllantirishdir. Shuning uchun har bir ta’lim beruvchi va jamiyat a’zosi bu masalaga jiddiy e’tibor qaratishi lozim. Zero, tarbiyali avlod — porloq kelajak kafolatidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. **Karimov I.A.** Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. — Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. **To‘xtasinov Sh., Jo‘rayeva M.** Pedagogika nazariyasi va tarixi. — Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
3. **Qodirov A., Mamarasulov X.** Pedagogika asoslari. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
4. **Umarov B., Abduqodirova, N.** Musiqqa ta’limi metodikasi. — Toshkent: Istiqlol nashriyoti, 2018.
5. **O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi.** Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi. — Toshkent, 2019.
6. **Elliott D.J.** Music Matters: A Philosophy of Music Education. — New York: Oxford University Press, 2015.
7. **Reimer B.** A Philosophy of Music Education: Advancing the Vision. — New Jersey: Prentice Hall, 2003.
8. **Lickona T.** Educating for Character: How Our Schools Can Teach Respect and Responsibility. — New York: Bantam Books, 1992.
9. **Creswell J.W.** Educational Research: Planning, Conducting, and Evaluating Quantitative and Qualitative Research. — Boston: Pearson, 2018.
10. **Delors J. et al.** Learning: The Treasure Within. Report to UNESCO International Commission on Education for the Twenty-first Century. — Paris: UNESCO Publishing, 1996.

³ Usmonova S. Ta’lim jarayonida noan’anaviy darslarga ijodiy yondashish usullari. -Buxoro: “Pedagogik mahorat” jurnali, 2005-yil, 2-son.